

## KASB-HUNAR TA’LIM TIZIMIDA O‘QUVCHILARNING ONA TILI FANIDA O‘QITISH METODIKASI

*Farg‘ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi  
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi  
Noraliyeva Dildora Abduvalikovna*

**Annotatsiya:** *Kasb-hunar ta’lim tizimida o‘quvchilarning ona tili fanida o‘qitish metodikasi xaqida ma’lumotlar keltrilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *kasb-hunar ta’lim tizimi, metod, ta’lim, texnalogiya, o‘qitish metodika.*

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilangan bo‘lib, unda ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, ta’limning uzluksizligi va izchilligi, umumiyligini o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb- hunar ta’limining majburiyligi, ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi, davlat ta’lim standartlari (DTS) doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi, ta’lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv, bilimli bo‘lish va iste’dodni rag‘batlantirish; ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish o‘z ifodasini topgan.

Kasb-hunar maktabda ona tilining o‘qitilishi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda belgilangan ana shu prinsiplarga tayanadi.O‘quvchi va talabalarni ona tili darslarida mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ular ongida ma’naviy-ma’rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim. Shuning uchun yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg‘ulotlarni o‘quvchi va talabalarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Ona tilimiz ma’ruza orqali emas, balki nutq ko‘rinishlarini tahlil qilish, so‘z birikmasi va gap modellarini o‘zlashtirish, esda saqlash orqali o‘rganiladi.

Hozirgi rivojlangan davrda dolzarb masalalardan biri o‘zbek tilining kasb-hunar, ilm-fan va texnika tili sifatidagi lisoniy asosini kengaytirish, atamalarini boyitishdir. Uzoq yillar bu soha chetda qolib keldi.

Keyingi yillarda bu sohada burilish yuz berdi: tilimizning kasb-hunar va ilmiy-texnika tili va atamalarida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.Ona tili o‘qitishning samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan uni adabiyot bilan bog‘lab olib borishga bog‘liq, yoki aksincha. Aslida, ona tili, adabiyot darslarida ham o‘rganiladi.

Ona tili o‘rta maktab, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o‘rganiladigan barcha fanlarni puxta o‘zlashtirish uchun muhim «kalit» sanaladi. Til vositasida o‘quvchi va talaba boshqa fanlarni o‘rganadi. Barcha fanlar yuzasidan fikrni yozma va og‘zaki ravishda bayon qilish orqali u o‘z ona tilini ham mukammal o‘rganib boradi.

«Ona tili» maktab ta’limi tizimida eng yetakchi fanlardan biri bo‘lib, jamiyat a’zolarini ijodiy fikrlashga, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda bayon qilishga o‘rgatadi.

Abu Nasr Forobi, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Munis Xorazmiy kabi olim va shoirlar o‘z asarlarida o‘sha davr mакtablaridagi ta’lim - tarbiya, ilmiy va badiiy asarlarni o‘qish va o‘rganish haqida fikrlar bildirib, metodik fikrning rivojiga ta’sir ko‘rsatdilar.

Ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy yoshlarning asar matnini ifodali o‘qish san’atini egallashlariga diqqatni tortdi. Ulug‘ shoir o‘zining «Lisonut tayr» asarida asar mazmunini tushunib o‘qish usulini egallashga chaqirdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asarlarini sodda tilda yozdi va boshqalarni ham shunga chaqirdi. O‘g‘li Xumoyunning dabdabali usulda yozilgan bir xatini tanqid qilib, «Boburnoma» asarida «Mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti, ham senga tashvish ozroq bo‘lur, ham o‘qig‘uvchig‘a»,—deb yozadi. Demak, Bobur zamondoshlarini tushunarli tilda yozishga, qiyin so‘zlar va balandparvoz so‘zlarni ishlatmaslikka da’vat etgan.

Respublikamiz o‘z mustaqillagini qo‘lga kiritgach, o‘zbek tili ya’ni davlat tilini o‘qitishga oid ilmiy tadqiqotlar ko‘lami ancha kengaydi. O‘tgan qisqa davr ichida ona tili o‘qitishning o‘ta muhim muammolariga oid doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi: A. G‘ulomovning «Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning o‘quv–biluv faolligini oshirish» (doktorlik:1991), T. G‘aniyevning

«Ona tilidan mashqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarning bilish (idrok etish) faoliyatini faollashtirish»(1991), Sh. Yo‘ldoshevaning «O‘zbek maktablari ona tili darslarida qo‘shma so‘zlarni o‘rgatishdagi izchillik» (1991), M. Sobirovaning «O‘zbek maktablari yuqori sinf o‘quvchilariga sodda gap sintaksisini munozara usulida o‘rgatish» (1994), M. Qaraxodjayevaning «Nofilologik guruh talabalarining kasbiy nutqini fe’l asosida shakllantirish metodikasi» (2002), S. Adilovaning «O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyasi vositasida tashkil etish» (2004), N. Alavutdinovaning «Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi» (2008) mavzulardagi ilmiy-tadqiqot ishlari himoya qilindi.

«Ona tili o‘qitish metodikasi» fanining predmeti esa kasb-hunar maktabda ona tili o‘qitish jarayonidir. Bu jarayon:

- a) ona tilidan o‘quvchilarga beriladigan zaruriy bilimlar silsilasi;
- b) shu bilimlarga muvofiq keladigan ko‘nikma va malakalar tizimi;
- v) ijodiy faoliyat usullari;
- g) o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga qamrab oladi.

«Ona tili o‘qitish metodikasi» fani pedagogik eksperiment, diagnostik tahlil, suhbat, kuzatish, o‘quvchilarning og‘zaki javoblari va yozma ishlarini tahlil qilish, ilmiy pedagogik adabiyotlar tahlili, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, mакtab hujjatlarini ko‘zdan kechirish singari ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanadi.

Suhbat va kuzatish. Suhbat ilmiy tadqiqotning keng tarqalgan metodidir. Suhbatda ikki shaxs-ilmiy tadqiqot olib boruvchi mutaxassis va suhbatdosh ishtirot etadi. Suhbatdosh o‘quvchi yoki o‘quvchilar jamoasi, o‘quvchi yoki o‘qituvchilar jamoasi, mакtab rahbarlari, ota-onalar bo‘lishlari mumkin.

Suhbat jarayonida tadqiqot mavzusi xususiyatlaridan kelib chiqib savollar beriladi va olingan javoblar yozma qayd qilinadi. Olingan javoblar ilmiy tadqiqot uchun muhim faktik

material bo‘lib xizmat qiladi. To‘plangan faktlarni tahlil etish orqali tadqiqotchi o‘rganilayotgan muammo xususida xulosalar chiqaradi va tavsiyalar ishlab chiqadi.

Diagnostik tahlil. «Diagnostika» tushunchasi yunoncha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, «aniqlashga qodir» ma’nosini ifodalaydi. O‘zbek tili o‘qitish nazariyasi va usuliyatidan zarur ilmiy xulosalar chiqarishda tadqiqotning bu metodidan keng foydalaniladi. Diagnostik tahlil olingan yozma ishlar, o‘tkazilgan savol-javoblar

hamda kuzatishlar asosida uyushtiriladi va u uch bosqichni o‘z ichiga qamrab oladi:

Birinchi bosqich tadqiqot predmetini aniqlash. Masalan, ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilar nutqidagi dialektal xatolarning oldiniolish va bartaraf etish, og‘zaki talaffuz me’yorlari ustida ishlash, o‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshirish jarayonlari tadqiqot predmeti bo‘lishi mumkin.

Ikkinci bosqich yuzaga kelgan murakkab holatning kelib chiqish sabablarini aniqlashdir.

Uchinchi bosqich yuzaga kelgan murakkab holatni bartaraf etish yo‘llarini belgilashdan iborat.

Metodik merosni o‘rganish. Metodik merosni o‘rganish ilmiy tadqiqotning eng muhim metodlaridan biri sanaladi. Ona tili ta’limining u yoki bu masalasini o‘rganishda agar uning tarixiga murojaat etiladigan bo‘lsa, bu metoddan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Masalan, «Ona tili ta’limi jarayonida takrorlash darslarini tashkil etish» masalasini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etish uchun shu

masalaning tarixiga, ya’ni Sharqning buyuk mutafakkirlarining takrorlash xususida bayon qilgan fikrlariga to‘xtalishga to‘g‘ri keladi. Tadqiqotchi bu haqda Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning asarlarini o‘qib, ularning shu borada bayon qilgan fikrlariga tayanadi.

Kasb-hunar ta’lim tizimida o‘quvchilarning Ona tili fanida o‘qitish uchun bir nechta metodikalardan foydalanish mumkin.

Quyidagi metodikalar o‘quvchilarning nutqni rivojlantirishda yordam berishi mumkin:

Kommunikativ metod: Bu metod o‘quvchilarni real hayotda tilni ishlatishga tayyorlashga yo‘naltiriladi. O‘quvchilar o‘zbek tilini o‘zaro muloqot, savollar berish, javob berish, adabiy matnlarni o‘qish va tahlil qilish orqali o‘rganishadi. Bu usulda amaliy mashg‘ulotlar, rol o‘yinlari, guruh ishlari va sohbetlar keng joriy qilingan.

Tematick usul: Bu usulda o‘quvchilar nutqni rivojlantirish uchun ma'lum mavzular asosida darslar o‘tkaziladi. Mavzu asosida adabiy matnlar, so‘zlashishlar, muloqotlar va yozuv mashqlari amalga oshiriladi. Bu usul o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha nutqlar tayyorlash, o‘z fikrlarini ifoda qilish va o‘zbek tiliga oid konseptlarni tushuntirishga yordam beradi.

Tahliliy usul: Bu usulda o‘quvchilarga o‘zbek tilining grammatikasi va tahlili o‘rganiladi. O‘quvchilar grammatik qoidalarni tushunish, matnlarni tahlil qilish va til bilan ishlashni o‘rganishadi. Bu usulda grammatika mashqlari, tarkibiy tahlil, gaplashuv va yozuv mashqlari qo‘llaniladi.

Axborot-kommunikativ usul: Bu usulda o‘quvchilar o‘zbek tilini ma'lumotlarni qayta ishlash va nutqni rivojlantirishning asosiy vositasiga aylantiriladi. O‘quvchilar ko‘plab axborot manbalaridan foydalanish, ma'lumotlarni ta’limda samarali ishlash, adabiy matnlarni tahlil qilish va o‘z fikrlarini ifoda qilish orqali o‘rganishadi.

O‘zbek adabiyoti asosida usul: Bu usulda o‘quvchilar o‘zbek adabiyoti asosida nutqni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. O‘quvchilar o‘zbek adabiyotidagi she’rlar, hikoyalar, romannlar va asarlar orqali o‘zbek tilini tushunish, adabiy matnlarni tahlil qilish va o‘zlarining nutqini tarqatishni o‘rganishadi.

Tushuntirish - namoyish etish metodi. O‘qituvchi tomonidan bilimlar tayyor holda beriladi. Ona tilining qonun-qoidalari o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi va uni mustahkamlash maqsadida misollar keltiriladi. O‘quvchilar bayon qilinayotgan bilimlarni tinglaydilar va xotirada saqlashga harakat qiladilar.

Muammoli bayon qilish metodi. O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga ma’lum bir muammo qo‘yadi va ularning mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlash orqali bu muammoni hal qilishga kirishadi. Ta’limning bu metodi o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining o‘qituvchi rahbarligida mustaqil tahlil etilishi, kuzatilishi, guruhanishi, umumlashtirilishi bilan ajralib turadi.

Qayta xotiralash metodi. Bu metodning o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘quvchi o‘quv topshirig‘ini egallangan bilimlarga asoslangan holda yoki berilgan namunaga qarab bajaradi. O‘quvchi muayyan andaza asosida harakat qiladi.

Qisman izlanuvchanlik metodi. Ta’limning bu metodi shu bilan ajralib turadiki, o‘qituvchi dars jarayonida ma’lum o‘quv muammosini qo‘yadi, ammo uni mustaqil hal qilish yo‘llarini ko‘rsatmaydi. Har bir o‘quvchi muammoni mustaqil hal qilish uchun o‘zicha izlanadi. Ammo qiyinchilik tutilganda unga yordam ko‘rsatiladi. O‘quvchi bu yordamni o‘qituvchining tushuntirishidan, o‘quvchilarning o‘zaro suhbatidan yoki darslikdan olishlari mumkin. Topshiriqni bajarish jarayonida olinadigan yordam metodni qisman ijodiy qilib qo‘yadi.

Ona tili fanida foydalaniladigan metodikalar o‘quvchilarni nutqni rivojlantirishda yordam beradi. Bu metodikalar o‘quvchilarni tilni ishlatish, mavzu bo‘yicha nutqlar tayyorlash, grammatika va tahlil, axborotdan foydalanish va o‘zbek adabiyoti asosida o‘rganishga yo‘naltirishadi. Har bir metodikada amaliy mashg’ulotlar, muloqotlar, adabiy matnlardan foydalanish va guruh ishlari keng joriy qilingan. O‘quvchilarga amaliyot, tushunchalar va tarjima mashqlari yordamida samarali o‘rganish imkoniyati beriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.G‘ULOMOV, M.QODIROV, M.ERNAZAROVA, A.BOBOMURODOVA, N.ALAVUTDINOVA, V.KARIMJONOVA. ONA TILI O‘QITISH METODIKASI. TOSHKENT – 2012.
2. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi.
3. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, «O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi», 2006, 42–44-b.
4. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. Toshkent, «Yangi asr avlodи», 2005, 202–209-b.
5. Hamidullo o‘g‘li, T. H. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI DAVRIDA CHATGPT VA HOZIRGI KUNDAGI O‘RNI. Scientific Impulse, 2(16), 320-325.

6. Isa o‘g‘li, X. A. (2023). O‘ZBEK TERMINOLOGIYASIDA SOHA TERMINLARINING O‘RGANILISHI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(16), 118-120..
7. Xasanov, A. (2023). ETYMOLOGICAL ANALYSIS OF SPECIAL TERMS. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 4(3).
8. ўғли Ҳасанов, А. И. (2023, January). С. АЙНИЙНИНГ “СУДХЎРНИНГ ЎЛИМИ” КИССАСИДА ҚЎЛЛАНГАН АРАБЧА ТЕРМИНЛАРНИНГ СЕМАНТИК-СТРУКТУР ТАҲЛИЛИ. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 32-37)..
9. Hasanov, A. (2023). STUDY OF FIELD TERMS IN WORLD TERMINOLOGY. Science and innovation, 2(C12), 151-155.
10. Isaevich, H. A. (2022). STUDYING THE NOTION OF TERM IN THE UZBEK AND WORLD LINGUISTICS. British View, 7(4)..
11. Hasanov, A. I. (2022). ANALYSIS OF ECONOMIC AND BANKING TERMS USED IN THE EPIC "DEATH OF A USURER". МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(3).
12. Isa o‘g‘li, H. A. (2022). SADRIDDIN AYNIYNING “SUDXO‘RNING O‘LIMI” ASARIDA QO‘LLANGAN IJTIMOIY TERMINLARNING SEMANTIK T AHLILI. FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 3(8), 5-9.
13. Ahmad, X. (2022). SADRIDDIN AYNIYNING “SUDXO‘RNING O‘LIMI” ASARIDA QO‘LLANGAN DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIGA OID TERMINLARNING PRAGMATIK T AHLILI. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 574-576.
14. Ahmad, H. (2022). XARAKTERNI TASVIRLASHDA DIOLOG VA MONOLOG. FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 858-861.
15. Isa o‘g‘li, X. A. (2021). RUHIYAT TASVIRIDA PEYZAJNING O‘RNI. FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 2(5), 98-105..
16. Xolboboyevich, X. J. (2022). Using Innovation and Technology to Accelerate Progress in Education. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 113-116.
17. Hayitov, J. (2022). TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING BA’ZI JIHATLARI. Физико-технологического образование, (3).
18. Hayitov, J. (2022). BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI KREATIVLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNALOGIYASI. Физико-технологического образование, (3).
19. Xolboboyevich, H. J. (2022). Future Technology Creativity of Teachers Some Aspects of Development. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 4, 55-58.
20. Kholboboyevich, H. J. (2022, February). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPING THE CREATIVE QUALITIES OF TEACHERS OF FUTURE TECHNOLOGY. In Next Scientists Conferences (pp. 71-75).
21. Xayitov, J. (2023). TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI TASHXISLOVCHI METODLAR. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(1 Part 2), 147-153.

22. Хўжаназаров, Ў. Э., Рўзимова, Х. К., Есимбетов, Р. М., Алламуратов, Б. Д., Бобокелдиева, Л. А., Наралиева, Н. М., & Халқузиева, М. А. (2022). Қашқадарё ҳавзасининг тоголди яйловлари мониторинги ва экологик оптималлаштириш. Образование, 8(9), 10.
23. Хўжаназаров, У. Э., Рузимова, Х. К., Есимбетов, Р. М., Алламуратов, Б. Д., Бобокелдиева, Л. А., Наралиева, Н. М., & Халкузиева, М. А. (2022). ашқадарё ҳдвзасининг тоголди яйловлари мониторинги ва экологик оптималлаштириш. Образование, 8(9), 10.
24. Есимбетов, Р., & Матрасулов, Г. (2022). РЕПРОДУКТИВНАЯ ДИНАМИКА БОЛЬШОЙ ПЕСЧАНКИ (RHOMBOMYS OPIMUS L.) В НУКУССКИХ ПЕСКАХ ПУСТЫНИ КЫЗЫЛКУМ. In НАУКА И ПРОСВЕЩЕНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 14-16).
25. Yesimbetov, R. M., Asenov, G. A., Allamuratov, B. D., & Matrasulov, G. J. (2020). Long-term Dynamics of the Midday Gerbil (*Meriones meridianus* Pall) Population in the Portion of the Kyzylkum Desert in the Nukus Area. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(3), 6213-6216.
26. Есимбетов, Р. М., & Асенов, Г. КАТТА ҚУМ СИЧҚОНИ (XENOPSYLLA HIRTIPIES) БУРГАСИННИГ МОНИТОРИНГ КУЗАТИШ ФЕНОЛОГИЯСИ. МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ БЕРДАХА ФАКУЛЬТЕТ БИОЛОГИИ, 31.
27. Есимбетов, Р. М., & Асенов, Г. ҚИЗИЛҚУМНИНГ НУКУС ҚУМИ ҲУДУДИДА ТУШКИ ҚУМСИЧҚОНИ (MERIONES MERIDIANUS) НИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА СОН ДИНАМИКАСИ. МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ БЕРДАХА ФАКУЛЬТЕТ БИОЛОГИИ, 29.
28. Hamidullo o‘g‘li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
29. Xolboboyevich, X. J. (2023). O‘QUVCHILARNI DARSDAN TASHQARI VAQTLARIDA KASB HUNARGA YO‘NALTIRISH. Innovations in Technology and Science Education, 2(7), 1019-1025.
30. Xayitov, J. (2023). TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI TASHXISLOVCHI METODLAR. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(1 Part 2), 147-153.
31. Xayitov, J. (2022). TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJ TAJRIBASI. Евразийский журнал академических исследований, 2(13), 1463-1470.
32. Xolboboyevich, X. J. (2022). Using Innovation and Technology to Accelerate Progress in Education. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 113-116.

- 33.Hayitov, J. (2022). TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI JIHATLARI. Физико-технологического образования, (3).
34. Hayitov, J. (2022). BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI KREATIVLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNALOGIYASI. Физико-технологического образования, (3).
- 35.<https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarining-nutqiy-rivojlanish-bosqichlari>